



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(7)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 58 sahifa,
27-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Muqobil energiya manbalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi: quyosh panellarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish muammolari	10
Abdullajonova Bashorat Olim qizi	
Xavfsizlik tuyg'usining psixologik mazmuni	13
Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari: kompetensiyaviy yondashuv asosida	17
Boybo'riyeva Saodat O'ralovna	
Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	21
Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi	
Kurash sportida innovatsion mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari	26
Madumarov Jahongir Urinbayevich	
O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni va roli	29
Yo'ldoshev Mirjalol Qosim o'g'li	
Sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak o'qituvchilar diagnostik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari	33
Teshaboyev Akramjon Yuldashevich	
O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir	39
Turdibekova Risolat Shermatovna	
6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ahamiyati	42
Tursunova Durdona	
Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy yondashuvlar: maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va sport natijalari	46
Xalmirzayev Azizillo Nabijonovich	
Veb-kvest" va "Til portfeli" texnologiyalarini bir butun integrativ model asosida o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi	49
Yusupova Muxabbat Anatolevna	
Содержание личностно-ориентированного образования и его роль в процессе самостоятельной подготовки студентов	53
Рысова Галия Байбулатовна	



XAVFSIZLIK TUYG'USININING PSIXOLOGIK MAZMUNI

Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti psixologiya yo'nalishi talabasi

Taqrizchi: Atadjanov M. Y.

Farg'ona davlat universiteti psixologiya kafedrasida professori
psixologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xavf va xavfsizlik tushunchalari hamda xavfsizlik tuyg'usining psixologik jihatlari kompleks tarzda tahlil etiladi. Shuningdek, insonlarning turli vaziyatlarda xavfni turlicha idrok etish xususiyatlari, xavfsizlik hissining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: xavf, xavfsizlik, xavfsizlik tuyg'usi, xavfni idrok qilish, qo'rquv.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the psychological aspects of risk and security, as well as the sense of security. It examines the ways individuals perceive danger in different situations and identifies the factors influencing the formation of a sense of safety.

Key words: danger, security, sense of security, perception of danger, fear.

Аннотация: В данной статье комплексно анализируются психологические аспекты понятий опасности и безопасности, а также чувство безопасности. Рассматриваются особенности восприятия опасности людьми в различных ситуациях, а также факторы, влияющие на формирование чувства безопасности.

Ключевые слова: опасность, безопасность, чувство безопасности, восприятие опасности, страх.

KIRISH

Insonni butun hayoti davomida turli darajadagi xavflar ta'qib qiladi. Psixologiyada xavfning odamlar tomonidan qanday qabul qilinishi, unga qanday javob qaytarilishi hamda uning oqibatlarini ilmiy muammo sifatida o'rganib kelinmoqda. Xavfsizlik turli xil xavflarning sodir bo'lish ehtimoli hamda ularga qarshi choralarining samaradorligiga asoslangan matematik ketma-ketlikni anglatadigan tushuncha hisoblanadi. Siz o'zingiz yashayotgan hududdagi jinoyatchilik darajasi, uy eshiklarini qulflash odatingiz, kuzatuv kamerasi va tahdidan xabar beruvchi qurilmalar bilan ta'minlanganlik holatiga qarab, uyingizning o'g'irlikdan qanchalik himoyalanganligini, ko'chada notanish odam yoki oila a'zolaringiz, yaqinlaringiz tomonidan o'ldirilish ehtimolini hisoblab chiqishingiz mumkin. Firibgarlikdan qo'rqib kredit olishni muzlatib qo'yish ham bunga misol bo'la oladi.

Ammo xavfsizlik tuyg'usi ehtimolliklar yoki matematik hisob-kitoblarga emas, balki xavf-xatarlar va ularga qarshi choralariga bo'lgan psixologik munosabatlarga asoslangan his-tuyg'u hisoblanadi. Aeroportda nazoratchilar tomonidan tekshirilayotgan odamni ko'rganlar o'zlarini xavfsizroq his qilishlari yoki buning aksi bo'lishi mumkin. O'g'irlik, qotillik xavfi mavjud joyda odam xavfni past, deb baholashi mumkin. Umuman olganda, odam xatar bilan yuzma-yuz turib o'zini xavfsiz hisoblashi yoki xavfsiz joyda buning aksi bo'lishi ham mumkin. Xavfsizlik hissi va xavfsizlikning o'zi bir-biri bilan bog'liq bo'lsa-da, ular bir xil mazmunni anglatmaydi.

Xavfsizlik tuyg'usini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda xavfsizlik tuyg'usini xavfsizlikning o'zidan farqlaydigan omillar aniqlangan.

Birinchi, xulq-atvorni moliyalashtirish omili bo'lib, u insonning hissiy, ijtimoiy va kognitiv xususiyatlarining qaror qabul qilish jarayoniga qanday ta'sir qilishini o'z ichiga oladi.

Ikkinchi esa qaror qabul qilish omili hisoblanadi. Bu omil nisbatan chegaralangan ratsionallik bo'lib, qarorlar qanday qabul qilinishini izohlaydi. Yuqoridagi ikki omil xavfsizlik bilan bevosita bog'liq bo'lmasa-da, har ikki holatda ham xavf inobatga olinadi.

Uchinchi omil odamlar tomonidan xavfning qanday idrok etilishi, xavfning qachon bo'rtirilishi yoki qachon kamaytirilishini tushuntiradi.

To'rtinchi omil nevrologiyaning tadqiqot sohasi bo'lib, unda xavf arafasida, bevosita xavf bilan yuzlashganda va xavfdan keyin yuz beradigan nerv tizimidagi o'zgarishlar o'rganiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xavfsizlik psixologiyasi intellektual va hissiy jihatdan insonning fikrlari bilan chambarchas bog'liq. Filogenez jarayonida bosh miya tahdidlarni yengish uchun murakkab mexanizmlarni ishlab chiqqan. Miyaning qanday ishlashi va qanday ishlamay qolishini tushunish hamda qo'zg'alish va tormozlanish reaksiyalaridan boxabar bo'lish xavfsizlik tuyg'usini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi omillar xavfsizlikning barcha sohalarida – axborot xavfsizligida, milliy xavfsizlik siyosatida, xavfsizlik xodimlarini tayyorlashda, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlashda muhim hisoblanadi.

Xavfsizlik tushunchasini savdoga qiyoslash mumkin. Chunki xavfsizlikni ta'minlash har doim mablag', vaqt, imkoniyat va erkinlik talab qiladi. Masalan, xonadon eshigini qulflab yurish xavfsizlikni ta'minlashi mumkin, lekin har safar eshik qulfiga kalitni solib ochish noqulaylik tug'diradi. Natijada odam o'zini xavfsiz holatda ham xavfsiz his qilmasligi mumkin. Biroq odam xavfsizlikni ta'minlash uchun mablag'ga ega bo'lmasa, xavf uchun ham "to'lov" qilishga majbur bo'ladi. 2001-yil 11-sentyabrda AQSHda samolyotlar yordamida amalga oshirilgan terrorchilik harakatidan so'ng samolyotlardan foydalanmaslik taklifi o'rtaga qo'yilgan, lekin buning imkoni yo'q edi, chunki samolyotlardan foydalanmaslik juda katta miqdorda moliyaviy zarar keltirardi. Shularni inobatga olib, dunyo hamjamiyati xavfni bartaraf etishga ketadigan mablag'ni xavfsizlikni ta'minlashga sarfladi va bu ancha foyda keltirdi.

Mahalliy tadqiqotchilar M.Y. Atadjanov hamda A.U. Xaydaraliyevning ilmiy ishlari va o'quv adabiyotlarida xavfsizlik psixologiyasi, ekstremal vaziyatlarda psixologik yordam ko'rsatish, shaxsiy va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash hamda tahdidlarga psixologik bardoshlilikni shakllantirish masalalari nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda esa B. Schneier xavfsizlikni faqat texnik yoki tashkiliy masala emas, balki insonning xavfni idrok etishi va qaror qabul qilishi bilan bog'liq psixologik hodisa sifatida izohlaydi. D. Ropeik va G. Gray tadqiqotlarida esa odamlarning xavfni subyektiv baholashi, xavfsizlik hissining shakllanishi hamda real xavf bilan uni psixologik qabul qilish o'rtasidagi tafovutlar ilmiy asosda tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlar ushbu maqolaning nazariy-metodologik asosini tashkil etadi.

Odam qancha mablag'ga ega bo'lmasin, xavfsizligini to'liq ta'minlay olmasligi mumkin. Chunki "mutlaq xavfsizlik" tushunchasi mavjud emas va xavf odamni har doim, har yerda ta'qib qiladi. Jamiyat mutlaq xavfsizlikka erishishi mumkin emas. Xavfsizlik qonuniyatlari, uni ta'minlash usullarining samaradorligi va narxi o'zgaruvchan bo'ladi. O'q o'tkazmaydigan sovet o'qotar qurollarga qarshi samarali bo'lishi mumkin, ammo odam jinoyatchilar ichida sovet kiyib yurgandan ko'ra, tinch mamlakatlarda yashashni afzal ko'radi. Xavfsizlikning o'zi va xavfsizlik tuyg'usining farqi mana shunda namoyon bo'ladi.

Odam kundalik hayotda turli xil xavflarga duch keladi va xavfsizlikni ta'minlashga majbur bo'ladi. Masalan, ertalab eshiklarni qulflaganda, yo'llarda qoidalarga amal qilganda, biror narsa sotib olish uchun karta yoki naqd pul orqali to'laganda odam o'z xavfsizligi haqida qayg'uradi. Bular xavfsizlikka erishishdagi yagona omil bo'lmasa ham, unga hissa qo'shadigan omillar hisoblanadi va odatda odam buni sezmaydi. Natijada intuitiv xavfsizlik savdosiga amalga oshadi. Ushbu intuitiv tanlovlar butun sayyoradagi hayotning markazidan joy egalaydi. Har bir tirik mavjudot xavfsizlik borasida savdo qiladi va shu asnoda rivojlanadi. Quyvon dalada o'tirib sabzi yemoqda, to'satdan u tulkini ko'radi va unda xavfsizlik bilan bog'liq tanlov boshlanadi: qolish kerakmi yoki qochish kerakmi? Xavfsizlik savdosini yaxshi o'zlashtirgan quyvonlar ko'proq yashaydi, boshqalari esa o'lja bo'ladi yoki och qoladi. Bu shuni anglatadiki, sayyoradagi aqlli tirik mavjudot sifatida odamlar xavfsizlik bo'yicha tanlovni amalga oshirishni juda yaxshi bilishlari kerak. Bu tajribaga ega bo'lish uchun odam xatolarga yo'l qo'yadi, ayrim xavflarni oshirib, boshqalarini esa minimallashtiradi.

Xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tanlovning to'g'ri tashkil etilishi uchun xizmat qiladigan bir nechta o'ziga xos jihatlar mavjud: xavfning ko'lami, xavfning ehtimoli, xarajatlarning miqdori, xavfga qarshi choralar samaradorligi hamda xavf-xatar va xarajatlarni taqqoslash imkoniyati. Agar yuqoridagi jihatlarda xavfsizlik hissi bilan real xavf o'rtasida tafovut mavjud bo'lsa, xarajatlar yo ko'payadi, yo kamayadi. Masalan, odamda xavf hissi real xavfdan yuqori bo'lsa, u ko'proq xarajat qila boshlaydi. Bunga qorin och paytda keragidan ortiq mahsulot sotib olishni misol qilish mumkin. Yoki aksincha, xavf hissidan ko'ra real xavf yuqori bo'lsa, odam nisbatan kamroq xarajat qiladi. Masalan, ko'chada qopqog'i ochiq qolgan maxsus quduqlarni yopish uchun ortiqcha harakat qilmaydi.

Xavfga qarshi choralarini baholashda ham nomutanosibliklar mavjud. Agar odam xavfsizlik choralarini qo'llash yuqori mablag' talab qiladi, deb hisoblasa, ularni qo'llash ehtimoli kamayadi. Agar odam qarshi choralarining samarasini ortiqcha baholasa, ularni zarurat bo'lmagan hollarda ham qo'llashi mumkin. Masalan,



ayrim odamlar, aslida bu noto'g'ri bo'lsa ham, yuqori dozali dori vositalarini kasallikning boshlang'ich bosqichida qo'llashni afzal ko'radilar.

Bizda haqiqatda mavjud xavf bilan xavfni idrok qilish o'rtasida tafovut mavjud. Har yili yo'l-transport hodisalari oqibatida 40 mingdan ortiq odam vafot etayotgan bo'lsa ham, ko'pchilik avtomobillarni samolyotlarga qaraganda xavfsizroq, deb hisoblaydi. Vaholanki, samolyotlardagi halokatlar soni juda kam va aviatsiya sohasida xavfsizlikni ta'minlash uchun avtomobil transportiga qaraganda ko'proq mablag' sarflanadi.

Yana bir misol sifatida quyidagi statistik ma'lumotni keltirish mumkin. Har yili 5000 dan ortiq kishi oziq-ovqatdan zaharlanish oqibatida vafot etadi. 2001-yil 11-sentyabr voqealarida esa qariyb 3000 kishi halok bo'lgan. Shunga qaramay, odamlar oziq-ovqat yoki farmatsevtika mahsulotlaridan zaharlanishdan ko'ra terrorchilik harakatiga duch kelishdan ko'proq qo'rqadilar. Aslida esa oziq-ovqat va dori vositalaridan zaharlanish ehtimoli ancha yuqori. Ushbu holat psixologiyada "inson miyasi o'zida mavjud bo'lgan pul, vaqt va boshqa resurslarni saqlashdan ko'ra sarflashni ko'proq xohlaydi", deb izohlanadi.

Odatda, insonlar kichik xavflarga unchalik e'tibor bermaydilar va faqat ayrim xavflarni bo'rttirib ko'rsatadilar. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida odamlar tomonidan xavfni idrok qilish bilan bog'liq quyidagi xulosalar shakllantirilgan:

- dahshatli, ammo kamdan-kam uchraydigan xavflar bo'rttirib ko'rsatiladi, keng tarqalgan xavflar esa kamaytirib baholanadi;
- insonlar odatdagi holatga o'xshamaydigan, barcha uchun zararli bo'lgan xavflarni baholashda qiynaladilar;
- shaxsiylashtirilgan xavflar anonim xavflarga nisbatan kattaroq, deb qabul qilinadi;
- odatda, odamlar o'zlari yaxshi biladigan xavflarni past baholaydilar, nazorat qila olmaydigan vaziyatlarda esa xavflarni ortiqcha baholaydilar;
- muhokama markazida bo'lgan xavflar ortiqcha baholanadi, natijada xavfning o'zi emas, balki odamlar jamoatchilik nazorati obyektiga aylanib qoladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Amerikalik tadqiqotchilar Devid Ropeyk va Jorj Grey XXI asr boshlarida o'tkazgan tadqiqotlari natijalariga asoslanib, odamlar tomonidan nima xavfli va nima xavfsiz ekanligini psixologik qabul qilish bo'yicha quyidagi xulosalarga kelishgan:

Ko'pchilik odamlar odatiy xavflarga qaraganda yangi xavflardan ko'proq qo'rqadilar. Masalan, 1999-yil yozida Nyu-York aholisi "G'arbiy Nil" virusidan juda qo'rqishgan, chunki chivin orqali yuqadigan ushbu infeksiya Amerika Qo'shma Shtatlarida ilgari hech qachon uchramagan edi. 2001-yil yoziga kelib virus yana paydo bo'lib, bir nechta odamni kasallantirgan bo'lsa-da, qo'rquv hissi ancha susaygan edi. Xavf hali ham mavjud bo'lgan, ammo Nyu-Yorkliklarning u bilan ma'lum vaqt davomida yashaganligi va unga nisbatan tanishlik hosil qilganligi virusni boshqacha qabul qilishga yordam bergan. Bu xulosaning to'g'riligiga yaqin o'tmishda yuz bergan, global cheklovlarga sabab bo'lgan, iqtisodiy zarar va jiddiy yo'qotishlarni keltirib chiqargan hamda yuz minglab insonlarning hayotiga zomin bo'lgan COVID-19 pandemiyasini misol qilib keltirish mumkin. Dastlab barchani mavhumlik ichida qoldirgan "dushman" vaqt o'tishi bilan odamlar tomonidan odatiy hodisa sifatida qabul qilina boshladi.

Aksariyat odamlar tabiiy xavf va tabiiy ofatlarga qaraganda inson tomonidan yaratilgan xavflardan ko'proq qo'rqadilar. Masalan, salomatlik uchun jiddiy xavf tug'diradigan quyosh nurlanishidan ko'ra yadro qurolining qo'llanishi yoki uyali telefonlarning nurlanishidan qo'rqadigan insonlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Xavfning inson tomonidan o'z ixtiyori bilan tanlanishi undan qo'rqish hissini kamaytiradi. Masalan, sigaret chekuvchilar, spirtli ichimliklarni suiiste'mol qiluvchilar va giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilar yopiq xonada is gazidan zaharlanishdan ko'ra, o'zlari tanlab iste'mol qiladigan xavfdan kamroq qo'rqadilar.

Agar xavf foyda keltirsa, odamlar undan kamroq qo'rqadilar. Masalan, AQSHda suv toshqini, sunami, bo'ron yoki zilzila oqibatida jarohatlanish yoki halok bo'lish xavfi mavjud bo'lsa ham, odamlar San-Fransisko va Los-Anjeles kabi shaharlarda yashashni afzal ko'radilar. Chunki u yerda ish va daromad topish imkoniyati ko'proq.

Odamlar eng ko'p uchraydigan o'lim sabablaridan biri bo'lgan qotillikka duch kelishdan ko'ra, o'limga olib kelishi mumkin bo'lgan, ammo kam uchraydigan xavflardan ko'proq qo'rqadilar. Bunga akula hujumiga uchrash, izziz yo'qolib qolish yoki ayrim kam uchraydigan kasalliklarni misol qilish mumkin.

Ko'pchilik odamlar o'zlari nazorat qila oladigan xavflardan kamroq qo'rqadilar. Masalan, avtomobilni o'zi boshqarayotgan odam yo'l-transport hodisasidan kamroq qo'rqadi, biroq yo'lovchi sifatida ketayotganda qo'rquv hissi kuchayadi.

Odatda, odamlar o'zlari ishonadigan joylar, insonlar va tashkilotlardan kelib chiqadigan xavflardan kamroq qo'rqadilar. Aksincha, xavf ishonmaydigan manbadan kelib chiqsa, qo'rquv hissi kuchayadi.

Odam o'zi yaxshi ma'lumotga ega bo'lgan xavflardan ko'proq, kam ma'lumotga ega bo'lgan xavflardan esa kamroq qo'rqadi. Masalan, 2001-yil kuzida terrorizm haqidagi xabardorlik yuqori bo'lgani sababli qo'rquv kuchaygan. Natijada ko'cha jinoyatchiligi, global iqlim o'zgarishi va boshqa xavflardan qo'rqish darajasi pasaygan. Buning sababi ushbu xavflarning yo'qolgani emas, balki ularga nisbatan axborot oqimining kamayganligi bilan bog'liq.

Noaniqlik va mavhumlik yuqori bo'lganda xavf-xatarlardan qo'rquv kuchli bo'ladi. Aksincha, xabardorlik yuqori bo'lsa, qo'rquv kamayadi. Bu holat odamlarning yangi texnologiyalarni nega yuqori darajadagi tashvish bilan kutib olishini izohlaydi.

Kattalar o'zlari uchun xavf tug'diradigan vaziyatlarga qaraganda, farzandlariga tahdid soladigan xavflardan ko'proq qo'rqadilar. Masalan, ko'pchilik ota-onalarda o'z ish joyidagi kutilmagan xavfdan ko'ra, farzandining maktabidagi kutilmagan xavf ko'proq tashvish uyg'otadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Odamlar, odatda, global xavflarga qaraganda, o'zlariga bevosita ta'sir qiladigan xavflardan ko'proq qo'rqadilar. Masalan, 2001-yil 11-sentyabr voqealaridan oldin amerikaliklarda qo'rquv darajasi nisbatan past bo'lgan, chunki real xavf uzoqda joylashgan edi. Terrorchilik hujumlaridan keyin xavfsizlik chora-tadbirlari bir necha barobar kuchaytirilgan bo'lsa-da, amerikaliklarda qo'rquv hissi sezilarli darajada ortgan.

Yuqoridagi omillar tahlili shuni ko'rsatadiki, birinchidan, xavfni idrok qilish uzoq davom etgan evolyutsion jarayon mahsuli hisoblanadi. Ikkinchidan, odamlarning xavf haqidagi tasavvurlari ko'pincha to'g'ri bo'lib chiqadi va aynan shu xususiyat insonning butun filogenez davomida yashab qolishi hamda ko'payishiga xizmat qilgan. Shu bilan birga, odamlar ayrim xavflarni bo'rttirib ko'rsatsalar, ayrimlarini esa asossiz ravishda kamaytirib baholaydilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda insonning xavfni idrok qilish qobiliyatidagi muvaffaqiyatsizliklar avvalgi evolyutsion davrlarga nisbatan tezroq yuz berayotgan yangi sharoitlar bilan bog'liq. Zamonaviy xavf-xatarlarning aksariyati yuz ming yillar avval mavjud bo'lmagan. Bu holat avtomobil bilan to'qnashganda yirtqichlardan qochish instinktlarining foyda bermasligiga yoki lochin hujumidan omon qolishga moslashgan, biroq o'qotar qurollar oldida ojiz qolgan qushlar misoliga o'xshaydi. Insonning tug'ma xavfni boshqarish qobiliyati zamonaviy jamiyat, yangi texnologiyalar va ommaviy axborot vositalari sharoitida yetarli darajada samarali bo'la olmaydi. Natijada siyosatchilar, marketologlar va turli kompaniyalar insonning ana shu tabiiy psixologik zaifliklaridan o'z manfaatlari yo'lida foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-sonli Farmoni.
2. Atadjanov M.Y., Xaydaraliyev A.U. Ekstremal vaziyatlarda psixologik xizmat: darslik. - Farg'ona, 2025.
3. Atadjanov M.Y. Xavfsizlik psixologiyasi. - Farg'ona, 2024.
4. Atadjanov M.Y., Xaydaraliyev A.U. Shaxsiy va ijtimoiy xavfsizlik psixologiyasi, tahdidlarga bardoshlilikni shakllantirish omillari: o'quv-uslubiy qo'llanma. - Farg'ona, 2024.
5. Schneier B. Beyond Fear: Thinking Sensibly About Security in an Uncertain World. - Heidelberg: Springer, 2003.
6. Ropeik D., Gray G. Risk: A Practical Guide for Deciding What's Really Safe and What's Really Dangerous in the World Around You. - Boston: Houghton Mifflin, 2002.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(7)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.